Jahon oziq-ovqat bozorlariga kirib borish va unda mustahkam o'rin egallash ko'p jihatdan eksport strategiyasini to'g'ri belgilab olishga bog'liq. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, eksport strategiyasi deganda eksportchi firmaning o'z mahsulotlarini jahon bozorlariga olib kirish va sotish borasidagi maqsadlari, ularni amalga oshirish vositalari va muddatlarini o'z ichiga olgan kompleks chora-tadbirlar tizimi tushuniladi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tashqi savdo va eksport masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarishning o'ziga xos mexanizmlarini shakllantirish, xorijiy hamkorlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish tamoyillarini ishlab chiqish, respublikamizning jahon iqtisodiy tizimlariga integratsiyalashuvi yo'llarini mustaqil belgilab olish vazifasi qo'yilgan edi.

O'tgan yillar mobaynida eksportni rag'batlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimiz tarmoqlarining eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo hajmini barqaror o'stirish va uning tarkibida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasining 2020–2023-yillardagi tashqi savdo aylanmasi va eksportning tovar tarkibi.²

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-y. 2019-y. ga nis., %da
Tashqi savdo aylanmasi, jami, mln. AQSh doll.	36,3	42,2	50,5	63,5	174,9
sh.j. eksport jami, mln. AQSh doll.	15,1	16,7	19,7	24,9	164,9
Tashqi savdo aylanmasida eksport salmog'i, %da	41,7	39,5	38,5	39,1	– 2,6 f.p.
sh.j. mahsulot turlari bo'yicha eksport tarkibi, jamiga nisbatan %da					
Jami	100	100	100	100	
Paxta tolasi	1,0	0,8	0,02	0,02	–0,98 f.p.
Oziq-ovqat mahsulotlari	9,6	8,8	9,5	9,3	–0,3 f.p.

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha statistik to'plamlari asosida tuzilgan.



Shundan: meva-sabzavotlar	6,7	5,7	5,9	5,7	-1,0 f.p.
Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	5,8	7,4	7,4	7,5	+1,7 f.p.
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,4	5,5	6,3	6,1	+1,7 f.p.
Qora va rangli metallar	8,2	9,9	8,6	8,6	+0,4 f.p.
Mashina va asbob-uskunalar	2,9	4,2	5,1	5,2	+2,3 f.p.
To'qimachilik mahsulotlari	12,7	17,6	16,5	16,4	+3,7 f.p.
Oltin	38,4	24,7	21,3	21,7	-16,7 f.p.
Xizmatlar	13,3	15,5	20,8	20,7	+7,4 f.p.
Boshqalar	3,7	5,6	4,5	4,5	+0,8 f.p.

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, so'nggi yillarda respublikamizning tashqi savdo aylanmasi muttasil o'sib borish tendensiyasini namoyon etmoqda. Jumladan, bu ko'rsatkich 2020-yilda 36,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 63,5 mlrd. AQSh dollariga yetdi yoki 2020-yilga nisbatan 74,9 % ga o'sdi. Ammo shu davrda jami tashqi savdo aylanmasida eksport salmog'i 41,7 dan 39,1 %ga (- 2,6 f.p.) kamaygan.

Mamlakatimizda 2020–2023-yillar davomida eksportning tovar tarkibida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, shu yillar davomida paxta tolasi eksporti salmog'i jamiga nisbatan 1,0 dan 0,02 %ga (-0,98 f.p.), oziq-ovqat mahsulotlari 9,6 dan 9,3 %ga (-0,3 f.p.), oltin 38,4 dan 21,7 %ga (-16,7 f.p.) kamaygan bo'lsa, energiya manbalari va neft mahsulotlari eksporti salmog'i 4,4 dan 6,1 %ga (+1,7 f.p.), qora va rangli metallar 8,2 dan 8,6 %ga (+0,4 f.p.), mashina va asbob-uskunalar 2,9 dan 5,2 %ga (+2,3 f.p.), to'qimachilik mahsulotlari 12,7 dan 16,4 %ga (+3,7 f.p.), xizmatlar 13,3 dan 20,7 %ga (+7,4 f.p.) o'sganini qayd etish joiz.

Keyingi yillarda mamlakatimiz eksportida oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan meva-sabzavotlar eksporti salmog'i ahamiyatli bo'lib bormoqda va 2023 yilda bu ko'rsatkich salkam 10 %ga yaqinni tashkil etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat mahsulotlarini tashqi bozorlarga eksport qilishning mamlakat va milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun quyidagi afzallik tomonlari mavjud:

mahsulotlarning ichki iste'moldan ortgan qismini jahon bozorlarida sotish mamlakat uchun valyuta mablag'lari ishlab topish, valyuta rezervlarini oshirish hamda to'lov balansini mustahkamlashga imkon yaratadi;

oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun o'z mahsulotlarini eksport qilish valyuta ishlab topish, sotishdan pul tushumlari va foydani ko'paytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochadi;

jahon bozorlari, ayniqsa Yevropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlar bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol, sifat va ekologik xavfsizlik jihatlariga qo'yiladigan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya va ekologiya standartlari hamda talablari juda yuqori bo'lib, bu holat milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarining iste'mol xususiyatlari, sifati va ekologik xavfsizligini muntazam oshirib borishga majbur qiladi;

ichki bozor to'yingan sharoitda ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarni eksportga chiqarish jahon bozorlarining bir qismini egallash orqali sotuvlar hajmini va daromadlarni oshirishga, ishlab chiqarish hajmini oshirish evaziga ta'minlanadigan "ko'lam samarasi" mahsulotlar tannarxini pasaytirishga, sotilmay turib qoladigan mahsulotlarni yo'qotishdan keladigan zararlardan saqlashga imkon beradi;

jahonning turli mintaqalaridagi bozorlarda faoliyat ko'rsatish iqlimdagi xilma-xillik va mavsumiylikka bog'liq holda mahsulot turlari hamda ishlab chiqarishni doimo diversifikatsiya qilishga yo'l ochadi;

ichki bozorda yilning ma'lum mavsumida o'z mahsulotini sotishi mumkin bo'lgan tovar ishlab chiqaruvchilar iqlimdagi xilma-xillik evaziga jahon bozorlarida yil davomida mahsulot sotishga erishishlari mumkin;

xalqaro savdo ishlab chiqarish resurslarini optimal taqsimlashga yo'l ochib, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytiradi va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltiradi;

jahon bozorlarida kuchli raqobat muhitining mavjudligi tovarlar assortimenti va sifatining yaxshilanishiga, qo'shimcha servis xizmatlarining rivojlanishiga olib keladi;

xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarning kengayishi o'z navbatida infratuzilmalar hamda kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi;

milliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida o'zaro tajriba almashishga, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga hamda ilg'or texnologiyalar va innovatsion g'oyalardan birgalikda foydalanishga yo'l ochadi.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun jahon bozorlariga chiqish va o'z mahsulotlarini eksport qilishning ham davlat, ham firmalar uchun manfaatli tomonlari juda ko'p.

Meva-sabzavotchilik – O'zbekiston qishloq xo'jaligining muhim quyi tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan



talabini qondirish bilan birga jahon bozorlariga sarxil meva-sabzavotlar eksport qilish orqali valyuta tushumini ta'minlashga imkon yaratadi.

O'zbekiston meva-sabzavotchilik quyi tarmog'i yirik eksport salohiyatiga ega bo'lib, bu serquyosh zaminning tabiiy-iqlim sharoiti jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan meva va sabzavotlarni yetishtirishga imkon yaratadi. Keyingi yillarda respublikamizda meva-sabzavotchilik tarmog'ini tubdan modernizatsiyalash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan muhim tadbirlar amalga oshirilganligi natijasida tarmoqning eksport salohiyati sezilarli oshdi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistondan 2020–2023-yillarda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi ko'rsatkichlari dinamikasi, mln. AQSh dollarida³.

Mahsulot nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-y. 2019-y.ga nisb., %
Mevalar va rezavorlar	353,9	280,6	291,6	363,9	102,8
Sabzavotlar	400,0	422,0	489,0	563,4	140,9
Uzum	188,3	208,5	280,1	155,1	82,4
Yeryong'oq	16,5	23,5	26,2	58,4	353,9
Qovun va tarvuzlar	35,6	22,7	37,2	40,0	112,4

Keltirilgan 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2023-yillarda uzum eksporti 17,6 %ga kamaygan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich yeryong'oqda 253,9, sabzavotlarda 40,9, qovun-tarvuzda 12,4, meva va rezavorlarda 2,8 %ga oshgan.

Har bir mamlakat yoki eksportchi firma jahon oziq-ovqat bozorlarida o'zining raqobat ustunligidan unumli foydalanishga intiladi. Raqobat ustunligi mamlakat yoki firmaning tabiiy, tashkiliy-iqtisodiy, texnik-texnologik va boshqa shart-sharoitlari ta'sirida uning mahsulotlarini jahon oziq-ovqat bozorlaridagi boshqa raqobatchilar mahsulotlaridan ustun mavqegini belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida kuchli raqobat sharoitida yutib chiqish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini ta'minlaydi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarini jahon bozorlariga eksport qilish imkoniyatlari quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

O'zbekiston tabiiy-iqlim sharoitlarining jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan meva-sabzavotlar yetishtirish uchun qulayligi;

mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlarining ichki iste'moldan ortiqchaligi va ularni jahon bozorlariga eksport qilish imkoniyatlari mavjudligi;

mamlakatimizda issiq kunlarning erta bahordan toki dekabr oyigacha davom etishi meva-sabzavotlarni jahon bozorlariga yil davomida uzluksiz yetkazib beradigan ishonchli hamkorga aylantirish imkoniyatini berishi;

respublikamizning tog'li va tog' oldi hududlarida qo'shimcha mevazor va uzumzor bog'lar barpo etish uchun yetarli yer maydonlari mavjudligi;

O'zbekiston meva-sabzavotlari xush ta'mi, vitaminlar hamda mikroelementlarga boyligi, shifobaxsh xususiyatlari va chiroyli ko'rinishi bilan jahon bozorlarida raqobatbardoshligi;

respublikamiz aholisining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish borasida asrlar davomida to'plagan boy bilimi, tajribasi, malaka va ko'nikmalari mavjudligi;

³ Manba: O'zbekiston qishloq xo'jaligi (2020–2023-yillar). O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi. www.stat.uz



MDH (ayniqsa Rossiyaning) va boshqa mamlakatlarning bozorlarida o'zbek meva-sabzavotlariga talabning yuqoriligi va ushbu bozorlar sig'imining kattaligi;

respublikamizda ho'l va quritilgan meva-sabzavotlar yetishtirish, ularni qayta ishlash bo'yicha hali foydalanilmagan imkoniyatlarning mavjudligi va boshqalar.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportiga transport koridorlari va vositalarini to'g'ri tanlash kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chunki, to'g'ri tanlov yukni tez, xavfsiz va arzon narxlarda xorijiy bozorlarga yetkazib berishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, meva-sabzavot eksporti quyidagi 9 ta asosiy transport koridorlari orqali amalga oshirilmoqda (3-jadval).

3-jadval. O'zbekistondan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida foydalaniladigan transport koridorlari.⁴

Transport koridori nomi	Masofasi va yetkazish muddati	
	Temir yo'lda	Avtomobilida
1,2,3 – Koridor “O'zbekiston – Qozog'iston – Rossiya Federatsiyasi – Yevropa Ittifoqi”	Masofa – 4 300 km Tashuv muddati – 15-17 kun	Masofa – 4 800 km Tashuv muddati – 18 kun
4 – Koridor “O'zbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon – Gruzija – Turkiya”	Masofa – 4 900 km Tashuv muddati – 25-30 kun	Masofa – 4 800 km Tashuv muddati – 18-24 kun
5 – Koridor “O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – Ummon”	Masofa – 2 830 km Tashuv muddati – 16 kun	Masofa – 2 900 km Tashuv muddati – 7 kun
6 – Koridor “O'zbekiston – Qozog'iston – Rossiya Federatsiyasi (Naxodka)”	Masofa – 8 850 km Tashuv muddati – 26 kun	Masofa – 8 800 km Tashuv muddati – 14 kun
7 – Koridor “O'zbekiston – Qozog'iston – Xitoy”	Masofa – 5 950 km Tashuv muddati – 20 kun	Masofa – 5 900 km Tashuv muddati – 22 kun
8 – Koridor “O'zbekiston – Qirg'iziston– Xitoy (Lyanyungan porti)”	Masofa – 4 950 km Tashuv muddati – 31 kun	Masofa – 5 000 km Tashuv muddati – 20 kun
9 – Koridor “O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston (Karachi porti)”	Masofa – 3 100 km Tashuv muddati – 21 kun	Masofa – 3 100 km Tashuv muddati – 8 kun

Eksportchilar uchun transport koridorlari bilan birga transport turlarini to'g'ri tanlashning ham ahamiyati katta. Chunki, eksportga chiqarilayotgan yukning turi, ortish va saqlash xususiyatlari, yo'lining uzoqligi hamda transport xarajatlaridan kelib chiqib transport turini tanlash mahsulot narxini oshib ketishi oldini oladi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda eksport yuklarini tashishda foydalaniladigan asosiy transport turlari quyidagilardan iborat: avtomobil transporti; temir yo'l transporti; havo (aviatsiya) transporti. Bu transport turlarining yuk sig'imi, ortish va saqlash hamda boshqa xarakteristikalari 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. <https://miit.uz/oz/menu/transportnye-koridory>.

4-jadval. Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishda foydalaniladigan transport turlarining xususiyatlari.⁵

Transport turi	Xususiyatlari
Temir yo'l transporti	<p>Mo'ljallanishi: Uzoq va o'rta masofalarga yirik hajmdagi yuklarni tashishda foydalaniladi</p> <p>Shartlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - eksport shartnomasi talablari yukni shoshilinch yetkazib berishni ko'zda tutmaydi; - eksportga chiqarilayotgan yukning transportda tashish xususiyatlari temir yo'lda tashish uchun optimal hisoblanadi; - yukni ortish va jo'natish joyi temir yo'l tarmog'iga yoki ortib tushirish uchun etarli quvvatga ega uskunalar bilan jihozlangan <p>Afzalliklari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ob-havo va tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liq bo'lmasdan yilning barcha fasllarida uzluksiz yuk jo'natish imkoniyati; - yirik hajmli yuklarni jo'natish imkoniyati va yuk tashish qiymati nisbatan arzonligi <p>Kamchiliklari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - temir yo'llar va kommunikatsiyalar mavjudligiga bog'liqlik; - yukni nisbatan uzoq muddatda etib borishi
Avtomobil transporti	<p>Mo'ljallanishi: Kam hajmli, qimmatbaho va tez buziladigan yuklarni qisqa va o'rta masofalarni tashishda foydalaniladi</p> <p>Shartlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - eksport shartnomasi talablari yukni o'z muddatida, «eshikdan eshikkacha» yetkazib berishni ko'zda tutadi; - eksportga chiqarilayotgan yukning transportda tashish xususiyatlari avtomobilda tashish uchun optimal hisoblanadi <p>Afzalliklari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - qo'shimcha ortish-tushirish paytida yuk va uning o'ramini shikastlanish ehtimoli yuqori bo'lganda qo'l keladi; - tez buziladigan yoki chuqur muzlatilgan oziq-ovqatlarni nisbatan tez muddatda yetkazib berish imkoniyati; - yukni ortib jo'natish va etib borish manzillari temir yo'l tarmoqlaridan uzoqda joylashgan hududlarda qo'l keladi <p>Kamchiliklari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ob-havo va tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqligi; - yuk tashish tariflarining temir yo'lga nisbatan qimmatligi; - avtomobilni yo'lda servis punktlaridan uzoqda buzilib qolish va ishdan chiqish xavfi
Havo (avia) transporti	<p>Mo'ljallanishi: Tor doirada ixtisoslashgan, kichik hajmli, tez buziladigan va qimmatbaho yuklarni etkazishda foydalaniladi</p> <p>Shartlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - eksport shartnomasi talablari yukni shoshilinch yetkazib berishni ko'zda tutadi; - eksportga chiqarilayotgan yukning transportda tashish xususiyatlari avitransportda tashish uchun optimal hisoblanadi
Havo (avia) transporti	<p>Afzalliklari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - nozik, qimmatbaho va tez buziladigan oziq-ovqatlarni shoshilinch tarzda yetkazib berish imkoniyati; - yuklarni dunyoning istalgan yirik aholi punktlari va boshqa transportda borish qiyin joylarga yetkazib berish mumkinligi <p>Kamchiliklari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ob-havo va tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqligi; - yuk tashish tariflarining boshqa transport turlariga nisbatan ancha qimmatligi, katta hajmdagi yuklarni tashishga imkon bermasligi; - yuklarni avitransportga ortishdan oldin va etib borgandan so'ng mijozga etkazish uchun qo'shimcha transportga ortish-tushirish ishlari mavjudligi

O'zbekistonning jug'rofiy joylashuvi sharoitida mamlakatlararo suv yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoni yo'qligi yoki dunyoning yirik suv yo'llaridan uzoqda joylashganligi asosiy transport yo'llari sifatida temir yo'l, avtomobil va havo (avia) transportidan foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini yirik partiyalarda va nisbatan arzon narxlarda yetkazib berishda temir yo'l transporti qo'l keladi.

Yuklarni tashish qiymati eksport qilinayotgan tovarlar narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining asosiy transport yo'laklari va tashish narxlari 5-jadvalda keltirilgan (5-jadval).

⁵ Manba: B.T. Salimov, M.S. Yusupov, A.S. Yusupov. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish. O'quv-amaliy qo'llanma. –T.: "Fan va texnologiya", 2015, 76-77 b.

5-jadval. O'zbekiston Respublikasining asosiy transport yo'laklari va tashish narxlari.⁶

Nomi	Masofa uzunligi, (km)	Tashish vaqti	20-22 tonna yukni tashishni o'rtacha xarajati, AQSH dollari
I. Janub, Janubiy – G'arbiy yo'nalish			
"Termez - Mazari Sharif"	85	1 kun	1200
"Toshkent - Buxoro - Turkmanobod - Mari - Saraxs - Bandar-Abbos"	3 065	6-7 kun (48/48 soat)	2 400 - 2 600
"Toshkent - Buxoro - Turkmanobod - Mari - Saraxs – Mersin"	4 208	12-14 kun (48/48 soat)	3 000 - 3 300
"Toshkent - Buxoro - Turkmanobod - Mari - Saraxs - Istanbul – Sofiya"	5 156	14-15 kun (48/48 soat)	4 000 - 4 300
II. Shimoliy, Shimoliy–G'arbiy yo'nalish			
"Toshkent - Qo'ng'iro't - Beyneu - Saratov - Moskva -Riga (Vilnyus)"	4 781 (Riga) 4 857 (Vilnyus)	10-14 kun (48/48 soat)	2 000 - 2 300
"Toshkent - Qo'ng'iro't - Beyneu - Saratov - Moskva - Smolensk - Brest - (Polsha, Germaniya, Fransiya, Ispaniya va boshqalar)"	4 421 (Minsk) 4 800 (Varshava) 5 400 (Berlin) 6 493 (Amsterdam) 6 842 (Parij) 8 117 (Madrid)	9-10 kun 10-12 kun 13-15 kun 14-16 kun 15-17 kun 17-19 kun (48/48 soat)	2 200 - 2 400 (Minsk) 2 300 - 2 500 (Varshava) 3 100 - 3 400 (Berlin)
"Toshkent - Qo'ng'iro't - Beyneu - Astraxan - Volgograd - Kiyev - (Polsha, Chexiya, Avstriya Slovakiya va boshqalar)"	4 140 (Kiyev) 5 400 (Praga) 5 400 (Vena) 5 400 (Bratis-lava)	9-10 kun 13-15 kun 13-15 kun 13-15 kun (48/48 soat)	2 200 - 2 500 (Kiyev) 3 000 - 3 300
"Toshkent - Qo'ng'iro't - Beyneu - Astraxan - Tbilisi - Batumi - Trabzon - Samsun - Istanbul - (Bolgariya, Ruminiya)"	5 500 (Sofiya) 5 600 (Buxarest)	14-15 kun 14-15 kun (48/48 soat)	4 000 - 4 300
III. G'arbiy yo'nalish			
"Toshkent - Qo'ng'iro't - Beyneu - Oqtau - Boku - Tbilisi - Poti – (Bolgariya, Ruminiya va boshqalar)"	4 558 (Konstansa) 4 645 (Burgas)	19-21 kun	4 500 - 4 700
"Toshkent - Buxoro – Turkmanobod - Mari -Turkmanboshi - Boku - Tbilisi - Poti - (Bolgariya, Ruminiya, Vengriya va boshqalar)"	4 320 (Burgas) 4 233 (Konstansa)	19-21 kun	4 700 - 4 900
IV. Sharqiy yo'nalish			
"Toshkent - Olmaota -Xorgos - Urumchi"	1 850	5-6 kun	2 800 - 3 000

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashqi bozorlarga kirib borish uchun mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarning me'yoriy-qonunchilik talablariga moslashtirish, ularning sifat standartlari, texnik normalari, jug'rofiy, demografik, hududiy, iqtisodiy, madaniy-maishiy va boshqa xususiyatlarini e'tiborga olgan holda faoliyat olib borishimiz maqsadga muvofiq.

Garchi respublikamizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari o'zlarining iste'mol xususiyatlari, shifobaxshligi va boshqa foydali xususiyatlari bilan jahon oziq-ovqat bozorlarida raqobat ustunligiga ega bo'lsa-da, ularni ichki bozorda qanday sotilsa, shundayligicha jahon bozorlariga chiqarish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Xorijiy mamlakatlarda meva-sabzavotlar yirik super va gipermarketlarning maxsus jihozlangan bo'limlarida yoki ixtisoslashgan oziq-ovqat do'konlarida sotiladi. Respublikamizdagi singari dehqon bozorlari Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlarda kamdan-kam uchraydi. Ulardagi oziq-ovqat savdosining o'ziga xosligi shundaki, mahsulotlar, shu jumladan meva-sabzavot mahsulotlari ham chiroyli va turli og'irlikdagi o'ramlarda, qadoqlangan holda sotiladi. Bu iste'molchilar vaqtini tejash, gigiena-sanitariya qoidalariga rioya etish, chiroyli dizayn orqali ularning e'tiborini tortish, ularning didi va ehtiyojlaridagi tovarlarni yetkazib berishga bo'lgan intilishlarda namoyon bo'ladi.

⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. <https://miit.uz/oz/menu/transportnye-koridor>.



Mahsulot sifatini ta'minlash bilan bir qatorda ularni bozorbop hamda xaridorgir qiladigan markirovka, reklama va brending kabi tashkiliy-iqtisodiy dastaklardan ham unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, o'zbek meva-sabzavotlarining ichki va tashqi bozorlarda o'ziga xos imidji va obro'-e'tiborini ta'minlashda, ularning mashhur sifat va tovar belgisi sifatida tanilishida brendingdan unumli foydalanish muhimdir.

Qisqa masofalarga, masalan Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston kabi qo'shni mamlakatlarga meva-sabzavot mahsulotlarini avtomobil transportida ham xaridorlarga yetkazib berish mumkin. Ammo, ayrim tadbirkorlarning respublikamizdan meva-sabzavot mahsulotlarini bojxona postlarini aylanib o'tib, yuklarni sug'urta qilmasdan eksport qilishga urinayotganligi bu ishlarni tartibga solishni kuchaytirishga olib kelmoqda.

Sanoat usulida qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini yaqinroq masofalarga eksport qilishda avtomobil transportidan foydalanish mumkin. Ammo, ho'l meva-sabzavotlar, poliz va uzum eksport qilishda temir yo'l yoki havo transportidan foydalanishga to'g'ri keladi. Havo transportida yuklarni uzoq masofalarga tez va sifatli etkazish imkoniyati yuqori bo'lsa-da, uning yuk tashish tariflari ancha qimmatligi uning imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Ayrim hollarda tovar sifati yuqori va tannarxi past bo'lgan taqdirda ham transport tarifi qimmatligi tufayli xarajatlar oshib ketib, foyda normasiga jiddiy salbiy ko'rsatishi mumkin. Ammo, O'zbekiston savdo yo'llarining jug'rofik biqlikligi va dengiz yo'llaridan olisligi hamda bir nechta qo'shni davlatlar chegarasidan tranzit orqali o'tishga to'g'ri kelishi transport xarajatlarining ortib ketishiga olib kelayotganini e'tiborga olmasdan bo'lmaydi.

Eksportchi korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari mahsulotlarining jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini ta'minlashda quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va yangi transport yo'laklarini ochish orqali transport xarajatlarini kamaytirish;

tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada rivojlantirish;

eksport qiluvchi korxonalariga mahsulot tayyorlash va sotish xarajatlarini kamaytirishda ko'maklashish;

ularni tashqi bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar, istiqbolli bozorlar, raqobatchilar to'g'risida olib borilgan tadqiqot natijalari bilan tanishtirish;

iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqobatdosh va ilm talab innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish;

xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish;

xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarning transportda tashish xarajatlarini kamaytirish.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan mexanizmlarni chuqur o'rganmay va tahlil etmay turib, jahon bozorlarida muvaffaqiyatga erishishni ta'minlovchi strategiyani shakllantirib bo'lmaydi. Shuni unutmash lozimki, mamlakatlarning tashqi savdoni tartibga solish mexanizmlari bir-biridan tubdan farq qilishi ham mumkin va bu eksport jarayonida e'tiborga olish lozim bo'lgan muhim holatlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2019 yil 24 yanvar. www.prezident.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"dagi PF–5853-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-4567334>
3. Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2006. – 39 с.
4. A.O'lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). –T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 392 b.
5. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo'lida. O'quv qo'llanma. –T.: "Moliya" nashriyoti, 2014. –34 b.
6. Mualliflar jamoasi. Yangi O'zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish odimlari. O'quv qo'llanma. – T.: Ma'naviyat, 2021. – 678 b.
7. B.T.Salimov, M.S.Yusupov, A.S.Yusupov. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish. O'quv-amaliy qo'llanma. –T.: "Fan va texnologiya", 2015, 240 b.
8. A.Rafiyev, J.Abdurahimov. O'zbekistonda biznes yuritish xarajatlari. –T.: O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O'zinfinvest, BMT TD, 2012. – 42 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>